VARDANZE SHAHAR XAROBASI: TARIXIY TOPOGRAFIYASI VA ILK O'RTA ASRLARDAGI RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Toshmamatov Raximberdi Ulug'bek o'g'li
Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisda Buxoro vohasining shimoli-sharqiy chekkasida joylashgan Vardanze yodgorligining tarixiy-geografik o'rni, yozma manbalar va og'zaki rivoyatlardagi ma'lumotlar hamda ko'p yillik arxeologik tadqiqotlar natijalari tahlil qilinadi. Shahar arki va shahristonining tuzilishi, mudofaa inshootlarining shakllanishi hamda IV–XI asrlardagi rivojlanish bosqichlari stratigrafik ma'lumotlar asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: G'arbiy Sug'd, Buxoro vohasi, Vardanze, vardanxudot, ark, shahriston, Shohbaxsh rustaqi, stratigrafiya, Buyuk Ipak yo'li.

Buxoro Sug'di Zarafshon daryosining quyi oqimida shakllangan qadimiy tarixiy-madaniy mintaqalardan biri bo'lib, uning geografik o'rni qadimdan qo'shni hududlar bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishiga imkon yaratgan. Buyuk Ipak yo'li tizimining shakllanishi bilan vohaning strategik va iqtisodiy ahamiyati yanada ortib, u Sharq va G'arb savdo yo'llarini, janubdagi o'troq dehqonchilik hududlarini shimol va g'arbdagi ko'chmanchi dashtlar hamda Sharqiy Yevropa bilan bog'lovchi muhim hududga aylangan (Mirzaaxmedov, Muxamedjanov. 1990, s. 113).

Mazkur geografik mavqe Buxoro Sug'dida etnik-migratsion va madaniy integratsiya jarayonlarining faollashuviga ham ta'sir ko'rsatgan. Ko'chmanchi guruhlarning vohaga kirib kelishi, ayrimlarining o'troqlashuvi va mahalliy aholi bilan aralashuvi hududning etnik-madaniy qiyofasini boyitgan. Chorvachilik va sug'orma dehqonchilik jamoalari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar, texnologik tajriba va madaniy an'analarning almashinuvi shahar markazlarining rivojlanishiga zamin yaratgan. Bu jarayonlarda Buxoro, Poykand, Romitan, Vardanze va Varaxsha kabi markazlar muhim o'rin egallagan (Mirzaaxmedov. 2016, s. 70–73).

Hozirgi Vardanze qo'rg'oni Buxoro viloyati Shofirkon tumanida joylashgan. Qadimgi davrlarda hudud Zarafshon deltasining irmoqlaridan biri orqali suv bilan ta'minlangan, o'simlik va hayvonot dunyosiga boy bo'lgan. Keyingi davrlarda gidrologik sharoitning o'zgarishi va Zarafshon quyi oqimiga keladigan suv miqdorining kamayishi natijasida voha asta-sekin qurg'oqlashgan. XIX asr boshlaridan Qizilqum qumlarining voha tomon siljishi kuchayib, XX asrning 20-yillariga kelib yodgorlik hududining katta qismini qum bosgan.

IX–XIII asr boshlariga oid arab va fors manbalarida Vardanze G'arbiy Sug'dning yirik markazlaridan biri, Obaviya ilk o'rta asr mulkining siyosiy markazi va vardanxudotlar qarorgohi sifatida qayd etiladi (Adilov, Mirzaaxmedov. 2001, s. 150–151). Arablar istilosidan keyin mahalliy siyosiy tuzilmalarning o'zgarishi natijasida Vardana Shohbaxsh rustaqining ma'muriy-iqtisodiy markaziga aylangan. Uning geografik o'rni keyingi davrlarda ham savdo aloqalarining rivojlanishiga xizmat qilib, XIX asr o'rtalarigacha O'rta Osiyoni Xorazm orqali Kavkaz va Sharqiy Yevropa bilan bog'lovchi tranzit yo'llar tizimida muhim manzil bo'lib qolgan.

Yozma manbalar va xalq og'zaki an'analarida Vardanzening kelib chiqishi Sosoniy shahzoda Shopur nomi bilan bog'lanadi. Rivoyatga ko'ra, Shopur Amudaryodan o'tib, Turon hukmdori Afrosiyob huzuriga kelgan va unga uylantirilishi natijasida Vardanze, ya'ni Shohbaxsh rustaqi hududidagi yerlar berilgan. Ayrim manbalarda Shopur Vardanaga asos solgani hamda Zarafshon deltasi tarmoqlaridan

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

birini kengaytirib, obod qilgani qayd etiladi. Keyinchalik ushbu suv tarmog'i Shopurkom nomi bilan atalgan (Adilov, Mirzaaxmedov. 2001, s. 151).

Arxeologik tadqiqotlar Vardanze yodgorligining ark va shahristondan tashkil topgan murakkab tuzilishga ega ekanini ko'rsatgan. Taxminan 0,8 gektar maydonni egallagan to'rtburchak ark janubi-g'arbiy tomonidan qariyb 7 gektarlik shahristonga tutashgan. Ark keng va chuqur xandaq bilan o'ralgan bo'lib, shahriston bilan janubi-g'arbiy tomondagi tor to'g'on-o'tish yo'li orqali bog'langan. Janubi-sharqiy qismda esa tashqi chiqish uchun mo'ljallangan ikkinchi darvoza aniqlangan. Ushbu rejalashtirish arkning mudofaa va boshqaruv funksiyalariga ega bo'lgan alohida markaz sifatida tashkil etilganini ko'rsatadi (Мирзаахмедов Д., Адылов, Поззи, Мирзаахмедов С., Султанова. 2013, с. 130).

Rabod hududining katta qismi qum ostida qolgan. Sharq tomonda XVIII–XIX asrlarga oid musulmon qabristoni, g'arbda esa XIX asrning birinchi yarmiga tegishli kulolchilik xumdonlari va qadimgi sug'orish tarmoqlarining izlari saqlangan. Bu topilmalar Vardanze hududida turli davrlarda aholi yashashi, hunarmandchilik va suv xo'jaligi faoliyati davom etganini ko'rsatadi.

Tarixiy topografiyani aniqlashtirish uchun instrumental o'lchovlar va kosmik tasvirlardan foydalanilgan (Orlando Cerasuolo, 2009, fig. IV.33). Ularning ma'lumotlariga ko'ra, ark janubi-g'arbdan shimoli-sharqqa biroz og'gan to'rtburchak shaklga ega. Shahristonning qo'rg'onga tutash qismi cho'zinchoq to'rtburchak, g'arbiy qismi esa biroz oval shaklda. Ark va shahristonning ilk rejaviy tuzilishi hamda ark quyi qatlamlaridan topilgan qadimgi sopol materiallar ularning shakllanishini antik davr oxiri bilan bog'lash imkonini beradi. Shahristonning g'arbiy qismi esa keyingi, ehtimol, o'rta asrlardagi kengayish natijasi bo'lishi mumkin.

Vardanze arkida olib borilgan qazishmalar natijasida yodgorlikning dastlabki tarixiy bosqichlarini stratigrafik jihatdan ajratish imkoniyati yuzaga kelgan. Davrlashtirishda qurilish qatlamlari, me'moriy qoldiqlarning o'zaro munosabati hamda sopol buyumlarning shakli va bezak xususiyatlari asosiy mezon sifatida qo'llanilgan.

Birinchi bosqich. Ark o'rnidagi dastlabki istehkom IV–V asrlar chegarasida barpo etilgan. U tashqi devor bo'ylab aylanma yo'lak va ehtimol, markaziy hovliga ega bo'lgan.

Ikkinchi bosqich. V asr oxiri – VI asrda eski istehkom usti shag'al va qum bilan tekislanib, uning ustiga yangi qasr binosi qurilgan. Ichki qismida pog'onasimon chekinmalar bo'lgan mazkur inshoot markaziy hovli va uning atrofidagi turli funksional xonalardan tashkil topgan. Bu qayta qurilish arkning murakkabroq saroy-ma'muriy majmuaga aylanganini ko'rsatadi.

Uchinchi bosqich. VII–VIII asr boshlarida arkda ikki aylanma yo'lak mavjud bo'lgan: taxminan 4 metr kenglikdagi tashqi yo'lak mudofaa, 1,5 metrli ichki yo'lak esa xonalar o'rtasidagi aloqa vazifasini bajargan. 709-yilda arablarning g'alabasi va vardanxudotning halok bo'lishidan keyin Vardanze arki vayron qilingan. Natijada u sulolaviy qarorgoh hamda arab istilosiga qarshi harakatning harbiy-siyosiy tayanchi sifatidagi mavqeini yo'qotgan.

To'rtinchi bosqich. Qariyb ikki asrlik tanaffusdan so'ng X–XI asr boshlarida arkning ayrim qismlarida hayot qisman tiklangan. Devor va pol qoldiqlari, shuningdek, tashnov izlari bunga dalil bo'ladi. Shu davrga oid chiqindi o'rasidan kosa, tovoq, ko'za va chiroqlarning sirli, ko'p rangli bezakli parchalari topilgan. Ularning bir qismi X asrga, qolganlari X asr oxiri – XI asr boshlariga mansub bo'lib, xronologik jihatdan qo'shni hududlardagi materiallar bilan mos keladi (Шишкина. 1978, табл. LXIII, фиг. 4; табл. LXVII, фиг. 1).

Arxeologik ma'lumotlar vardanxudot halokati va arab qo'shinlari tomonidan qal'aning vayron qilinishidan keyin arkdagi hayot X asr boshlarigacha sezilarli darajada susayganini ko'rsatadi. Arkda

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Shohbaxsh rustaqi ma'muriy markazining joylashganini tasdiqlovchi yirik qayta qurilish izlari aniqlanmagan. Shu sababli rustaq markazi shahristonda joylashgan bo'lishi mumkinligi haqidagi taxmin ilgari suriladi. Bunga Buxoro va Samarqand shaharlaridagi o'xshash urbanistik holatlar ham qiyosiy asos bo'la oladi: X asr boshlarida Buxoroda Somoniylar saroyi va devonlari Registon hududida, Samarqandda esa Somoniylar saroyi shahriston ichida joylashgan edi (Ан-Наршахи. 2011, с. 36–37). Bundan tashqari, Vardanze arkiga chiqishning murakkabligi tinch davrda ma'muriy binolarni shahristonda joylashtirishni amaliy jihatdan qulayroq qilgan bo'lishi mumkin.

Umuman, Vardanzening shakllanishi va yuksalishi antik davr oxiri hamda ilk o'rta asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda u G'arbiy Sug'dning shimoli-sharqiy chekkasida, ko'chmanchi dashtlarga yaqin hududda joylashgan mustahkamlangan siyosiy, harbiy va savdo-iqtisodiy markazlardan biri bo'lgan. Arablar istilosi natijasida arkning sulolaviy qarorgoh sifatidagi mavqei tugagan bo'lsa-da, shahristonning ahamiyati saqlanib qolgan. X–XI asrlarda arkdagi hayotning qisman tiklanishi uning avvalgi ma'muriy vazifasi to'liq qayta tiklanmaganini ko'rsatadi.

Vardanze tarixida tabiiy-geografik omillar, ayniqsa, suv ta'minoti muhim o'rin tutgan. Zarafshon deltasining suv tarmoqlari shaharning xo'jalik va urbanistik rivojlanishiga imkon bergan bo'lsa, keyingi gidrologik o'zgarishlar va qurg'oqlashuv uning tanazzul jarayonlariga ta'sir ko'rsatgan. Shu bois Vardanze tarixini siyosiy voqealar bilan bir qatorda tabiiy muhit, suv xo'jaligi, savdo yo'llari va shaharsozlik jarayonlarining o'zaro aloqasi asosida o'rganish muhimdir.

Yozma, arxeologik va topografik ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilish Vardanzeni Buxoro vohasi tarixiy taraqqiyotini o'rganishdagi muhim yodgorliklardan biri sifatida ko'rsatadi. Ayniqsa, shahristonda kelgusida olib boriladigan keng ko'lamli qazishmalar Shohbaxsh rustaqining ma'muriy markazi joylashuvini aniqlash, shaharning hududiy kengayish bosqichlarini tiklash hamda ark va shahristonning funksional munosabatlarini yanada aniq belgilash imkonini beradi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati

1. Мирзаахмедов Д.К., Мухамеджанов А.Р. Бухара на трансевразийских коммуникациях Великого Шёлкового Пути // Формирование и развитие трасс Великого Шёлкового Пути в Центральной Азии в древности и средневековье. – Ташкент, 1990.
2. Мирзаахмедов Д. К. Крупные городские центры Западного Согда-Бухара, Пайкенд, Варахша – к динамике урбанизационных процессов // Бухара-город на Великом Шёлковом Пути один из центров всемирного туризма. – Бухара, 2016.
3. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. Москва.1975
4. Адылов Ш.Т., Мирзаахмедов Д.К. Из истории древнего города Вардана и владения Обавия // История Материальной Культуры Узбекистана. Вып. 32. Ташкент. 2001.
5. Мирзаахмедов Д.К. Адылов Ш.Т., Поззи С., Мирзаахмедов С., Султанова М. Исследования в Вардане в 2012 г.//Археологические исследования в Узбекистане - 2012 год. Самарканд. 2013.
6. Мирзаахмедов Д.К. К социально – экономическим фактором развития глазурованной керамики Мавераннахра IX-начала XIII в.//Согдийцы, их предшественники, современники и наследники. Санкт-Петербург. 2013.
7. Мирзаахмедов Д.К. К истории художественной культуры Бухары. Ташкент. 1990.
8. Мирзаахмедов Д.К. К социально-экономической истории Бухары второй половины XII - начала XIII вв.//Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.